<i>Zakirova Dilfuza Sayidolimovna</i>	
O'quvchilar orasida jismoniy faollikni oshirish uchun yangi ilmiy yondashuvlar	561
<i>Zaynobidinov Dilshodbek Qobilovich</i>	
Активные методы обучения как коммуникационная основа современного урока	566
<i>Ахмедова Мукаддас Ходиматовна</i>	
Инклюзия как путь к равным возможностям: развитие системы образования Узбекистана	570
<i>Баротова Шохсанам Бахтиёр кизи, Мауш Ребия Джамshedовна, Мурадова Дилфуза Махмудовна</i>	
“Qurilish konstruksiyalari” fanini o'qitishda kasbiy-amaliy kompetentlikni rivojlantirish	576
<i>No'manova Soxiba Ergashboyevna</i>	
Креативный педагогический подход в музыкально-теоретических и практических занятиях по искусству макама	582
<i>Нурматова Фируза Муминовна</i>	
Система упражнений по методике обучения средствам речевой выразительности узбекского языка	587
<i>Фаттахова Д. А.</i>	
Oliy ta'limda kompetensiyaga asoslangan o'qitish modellari	592
<i>Ernazarov Alisher Ergashevich, Chinqulova Gulmehra</i>	



TALABALARDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK TAMOYILLARI



Davronov Nurzod Ismoilovich
Buxoro davlat pedagogika instituti
Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi
kafedrası dotsenti, p.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqola bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida sog'lom turmush tarzini rivojlantirish va salomatlik madaniyati ko'nikmalarini shakllantirish masalalarini ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan tahlil qiladi. Maqolada talabalar salomatligini mustahkamlash, jismoniy faollikni oshirish, to'g'ri ovqatlanish va shaxsiy gigiyena ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali metod va usullari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, pedagogik jarayonda interaktiv va innovatsion yondashuvlar orqali salomatlik madaniyati ko'nikmalarini shakllantirishning amaliy jihatlari va ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalari bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining professional tayyorgarligida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishning ilmiy asoslarini belgilashga yordam beradi.

Kalit so'zlar: bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari, sog'lom turmush tarzi, salomatlik madaniyati, pedagogik yondashuvlar, ko'nikmalarni rivojlantirish, innovatsion metodlar.

Abstract: This article analyzes the development of a healthy lifestyle and the formation of health-culture skills among future physical education teachers from a scientific and pedagogical perspective. It discusses effective methods and techniques aimed at strengthening students' health, increasing physical activity, and developing proper nutrition and personal hygiene skills. The paper also highlights the practical aspects and significance of cultivating health-culture skills through interactive and innovative approaches in the pedagogical process. The research results contribute to defining the scientific foundations for promoting a healthy lifestyle in the professional training of future physical education teachers.

Key words: future physical education teachers, healthy lifestyle, health culture, pedagogical approaches, skills development, innovative methods.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы формирования здорового образа жизни и развития культуры здоровья у будущих учителей физической культуры с научно-педагогической точки зрения. Анализируются эффективные методики укрепления здоровья студентов, повышения их физической активности, формирования навыков правильного питания и личной гигиены. Освещаются также практические аспекты и значение формирования культуры здоровья посредством интерактивных и инновационных педагогических подходов. Полученные результаты способствуют определению научных основ формирования здорового образа жизни в профессиональной подготовке будущих учителей физической культуры.

Ключевые слова: будущие учителя физической культуры, здоровый образ жизни, культура здоровья, педагогические подходы, развитие навыков, инновационные методы.

KIRISH

Sog'lom turmush tarzi insonning jismoniy va ruhiy sog'ligini saqlash va yaxshilashga qaratilgan xulq-atvor hamda odatlar majmuasidir. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari uchun sog'lom turmush tarzini rivojlantirish va salomatlik madaniyati ko'nikmalarini shakllantirish ayniqsa muhimdir, chunki ular kelajakda o'z o'quvchilariga nafaqat jismoniy tarbiya darslarini o'rgatish, balki sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish orqali sog'lom avlodni tarbiyalashda bevosita rol o'ynaydilar.

Jismoniy va ruhiy farovonlikka e'tibor qaratadigan shaxs kasalliklarning oldini olish, stress va muammolarga bardosh berish, hamda hayotdan to'liq zavq olish imkoniga ega bo'ladi. Shu bois, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida sog'lom turmush tarzini qo'llash va unga doir ko'nikmalarni shakllantirish – nafaqat shaxsiy sog'liqlarini mustahkamlash, balki pedagogik faoliyatlarining samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Ko'plab davlat va jamoat tashkilotlari sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga katta e'tibor qaratmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sog'lom turmush tarzini qo'llaydigan shaxslar zararli odatlarga kamroq moyil

bo'ladi, saraton va yurak-qon tomir kasalliklari kabi xastaliklardan erta vafot etish xavfi kamayadi, shuningdek, jismoniy va ruhiy sog'lig'i uyg'un ishlaydi. Bu esa bo'lajak o'qituvchilarga nafaqat o'z salomatliklarini mustahkamlash, balki o'quvchilarga sog'lom turmush tarzini targ'ib etishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Maqolada bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida sog'lom turmush tarzini rivojlantirish va salomatlik madaniyati ko'nikmalarini shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari, samarali metod va usullari, shuningdek, amaliy tavsiyalar tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jismoniy tarbiya darajasining funksional vazifasi faqat o'quvchilarning sog'ligi va jismoniy barqarorligini ta'minlash bilan cheklanmaydi, balki uning yordamida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida sog'lom turmush tarzini rivojlantirish, salomatlik madaniyati ko'nikmalarini shakllantirish ham amalga oshiriladi. Shu bilan birga, bu jarayon orqali kelajak pedagoglar shaxsiy xulq-atvor, ma'naviyat, mehnatsevarlik, vatanga sadoqat, bag'rikenglik, hamkorlik, insonparvarlik va maqsadga erishuvchanlik kabi fazilatlarini o'zlashtiradilar.

Sog'lom turmush tarzi va ekologik madaniyat masalasi ko'plab akademik va olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Jumladan, I.D. Zverov, A.N. Zaxlebniy, E.O. Turdiqulov, I. Suravegina, I. Matrusov va boshqalar sog'lom turmush tarzi, salomatlik madaniyati va ekologik bilimlarning pedagogik-falsafiy asoslarini o'rganganlar. O'zbekistonlik olimlar Yu. Shodimetov, B. Ziyomammedov, A.S. To'xtaev, E.V. Qodirov, O. Qudratov va boshqa tadqiqotchilar esa sog'lom turmush tarzining mazmuni, uning inson salomatligi, jismoniy faollik va ekologik muhit bilan bog'liqligi, shuningdek, salomatlik madaniyati va ekologik ta'limning ijtimoiy-falsafiy jihatlari chuqur o'rgananganlar.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, haftasiga ikki marotaba jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini o'tkazish, har xil turdagi jismoniy faollik – yengil atletika, gimnastika, voleybol, basketbol va boshqa sport turlari – orqali sog'lom turmush tarzini rivojlantirish samaradorligini oshiradi (I.G. Skachkov, 1993; V.A. Golomazov, V.D. Kovalyev, A.G. Melnikov, 1996; Z. Kazevich, 1983; Yu.M. Yunusova, 2002 va boshqalar).

Sog'lom turmush tarzi insonning tabiat, jamiyat va o'zini muhofaza qilish, uning resurslaridan oqilona foydalanish, faol hayotiy pozitsiyada bo'lish va amaliy harakat qilishidir. Salomatlik madaniyati esa tabiat bilan insonning uyg'un, ongli va mas'uliyatli munosabatini ta'minlovchi bilim, idrok, intellektual salohiyat va amaliy ko'nikmalar majmuasidir. Shu bilan birga, bu jarayonda bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari o'zida jismonan sog'lom, ruhiy va ma'naviy barqaror, intellektual va estetik jihatdan yetuk, mas'uliyatli shaxs sifatida shakllanadi.

Boshqa tomondan, tarixiy va adabiy manbalar, xususan, Alisher Navoiy ijodi, yoshlarda sog'lom turmush tarzi va ekologik madaniyatni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, Navoiy "Farhod va Shirin" dostonida Farhod obrazi orqali vatanparvarlik, jamiyatga xizmat, sog'lom turmush tarzi va tabiatni asrab-avaylash g'oyalarini targ'ib qiladi. Shu orqali kelajak pedagoglar – jismoniy tarbiya o'qituvchilari – o'z o'quvchilari orasida ham sog'lom turmush tarzini rag'batlantirish va ekologik madaniyatni shakllantirishda namunaviy rol o'ynashlari mumkin.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining tayyorgarligida sog'lom turmush tarzini rivojlantirish va salomatlik madaniyati ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik jihatlari quyidagilardan iborat:

- tabiatning inson hayotidagi o'rnini his etish va qadrlash;
- tabiat va jamiyat uyg'unligini tushunish va unga mos harakat qilish;
- tabiat resurslaridan oqilona foydalanish va ularni asrab-avaylash;
- sog'lom turmush tarzi va ekologik madaniyatni o'z hayotida amaliy qo'llash;
- o'quvchilarni mas'uliyatli, faol va sog'lom hayot tarziga intilishga o'rgatish.

Shunday qilib, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida sog'lom turmush tarzi va salomatlik madaniyati ko'nikmalarini shakllantirish nafaqat ularning professional tayyorgarligini, balki kelajak avlodga ekologik ong va sog'lom hayot tarzini targ'ib qilishni ham ta'minlaydi. Bu jarayon milliy, hududiy va umumboshqaruviy qadriyatlar bilan uyg'unlashgan holda amalga oshiriladi, natijada barqaror va mas'uliyatli shaxslar yetishib chiqadi.

Shu bois, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining tayyorgarlik jarayonida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va salomatlik madaniyati ko'nikmalarini shakllantirish muhim vazifa hisoblanadi. Bu borada ilmiy va uslubiy tadqiqotlar doimiy ravishda kengayib bormoqda.

Shuningdek, jismoniy tarbiya darslarini mavzuga moslashtirilgan harakatli o'yinlar bilan boyitish nafaqat o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligini, balki bo'lajak pedagoglarning sog'lom turmush tarziga oid ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Shu yo'l bilan ular kelajakda o'z o'quvchilariga ham sog'lom hayot tarzini targ'ib qilishda namunaviy rol o'ynaydilar.

Shu sababli, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining professional tayyorgarligida sog'lom turmush tarzi va salomatlik madaniyati ko'nikmalarini integratsiyalash, darslarni samarali tashkil etish va harakatli o'yinlar orqali amaliy ko'nikmalarni shakllantirish eng dolzarb vazifa hisoblanadi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida sog'lom turmush tarzini rivojlantirishga oid pedagogik tamoyillarni o'rganishda ilmiy izlanishlarning aniqligi va ishonchligini ta'minlashga qaratildi. Ma'lumotlar anketalar, kuzatishlar, suhbatlar va o'quv jarayoniga oid amaliy faoliyatni tahlil qilish orqali yig'ildi. Olingan ma'lumotlar mazmuniy tahlil, taqqoslash, statistik umumlashtirish hamda pedagogik diagnostika usullari yordamida qayta ishlanib, bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush ko'nikmalarining shakllanish darajasi baholandi. Tahlil natijalari sog'lom turmush tarzini rivojlantirishga ta'sir etuvchi pedagogik omillarni aniqlash va ularning samaradorligini baholash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sog'lom turmush tarzi insonning tabiat, jamiyat va o'zini muhofaza qilishni, resurslardan oqilona foydalanishni, faol hayotiy pozitsiyada bo'lishni hamda amaliy harakat qilishni o'z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan, sog'lom turmush tarzi pedagogik jarayonning asosiy tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Ayniqsa, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari uchun bu ko'nikmalarni o'zida shakllantirish nafaqat ularning professional tayyorgarligida, balki kelajakda o'quvchilarga sog'lom turmushni targ'ib qilishda ham muhim rol o'ynaydi.

Pedagogik psixologiyada shaxsning ijtimoiy va jismoniy rivojlanishi bir-birini to'ldiradi, bu esa sog'lom turmush tarzining shakllanishi bilan chambarchas bog'liqdir. Shaxsning jismoniy salomatligi va ruhiy barqarorligi pedagogik jarayonda o'quvchilarni tarbiyalash uchun namuna bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu jarayon individual va kollektiv jihatdan amalga oshiriladi: o'qituvchi o'quvchilarga sog'lom hayot tarzini o'rgatadi, o'quvchi esa bu bilimlarni kundalik hayotda amalda qo'llaydi.

Shu bois, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida sog'lom turmush tarzi va salomatlik madaniyati ko'nikmalarini shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari zamonaviy ta'lim jarayonida ustuvor vazifa hisoblanadi. Bu jarayonning samaradorligi o'quvchilarning jismoniy faolligi, individual psixologik xususiyatlari va ijtimoiy muhit bilan bog'liq omillarni inobatga olgan holda amalga oshirilishi lozim.

Sog'lom turmush tarzi va salomatlik madaniyati pedagogik shakllanishida tarixiy va adabiy manbalar muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Xususan, Alisher Navoiy ijodida Farhod obrazida sog'lom turmush tarzi, vatanparvarlik, tabiatni asrab-avaylash g'oyalari keng targ'ib qilingan. Bu pedagogik amaliyotda "madaniyat orqali tarbiya" tamoyilini ifodalaydi.

Adabiy asarlar o'quvchilarga nafaqat nazariy bilim beradi, balki hissiy va estetik tajriba ham shakllantiradi. Farhod obrazidagi fazilatlar – mas'uliyat, jasorat, sog'lom turmushga intilish, ijtimoiy faollik – o'quvchilarda ijobiy xulq-atvorni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu tarzda, adabiyot orqali ekologik va salomatlik madaniyati uyg'un tarzda rivojlantiriladi, bu esa o'quvchilarda tabiatga mas'uliyatli munosabatni, ijtimoiy va shaxsiy salomatlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Pedagogik amaliyotda bunday yondashuv bolalarda nafaqat bilish faoliyatini, balki hissiy-axloqiy va estetik tajribani ham rivojlantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, tarixiy va adabiy manbalar milliy qadriyatlarni o'rganish va ularni amalda qo'llashga yo'naltirilgan metodik yondashuvni ta'minlaydi.

Ekologik madaniyat faqat nazariy bilimdan iborat emas, balki ongli va mas'uliyatli munosabatni ham o'z ichiga oladi. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari uchun ekologik madaniyatni shakllantirish o'quvchilarda tabiatni asrab-avaylash, resurslardan oqilona foydalanish va ekologik mas'uliyatni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda ekologik muammolar global darajada muhim masala bo'lib, pedagogik jarayonlarda bu ko'nikmalarni shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Pedagogik jihatdan ekologik madaniyat – bilim, ko'nikma va fazilatlarini birlashtiradigan integratsiyalashgan yondashuvdir. Bu yondashuv o'quvchilarda sog'lom turmush tarzi bilan uyg'unlashgan holda ekologik mas'uliyatni rivojlantirishga imkon yaratadi.

Pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilari hayotining erta bosqichida sog'lom turmush tarzi va ekologik madaniyatni shakllantirish muhim hisoblanadi. Bu jarayon tizimli, nazariy-amaliy va milliy qadriyatlar bilan uyg'un bo'lishi lozim.

Bolalikda shakllangan odatlar va ko'nikmalar kattalar hayotiga kuchli ta'sir qiladi. Shu sababli pedagogik amaliyotda boshlang'ich sinflarda sog'lom turmush va ekologik ongni rivojlantirish ustuvor vazifa bo'lishi kerak. Bu nafaqat o'quvchilarning jismoniy va ruhiy salomatligini ta'minlaydi, balki ularning ijtimoiy mas'uliyatini va ekologik ongini rivojlantiradi.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida sog'lom turmush tarzi va ekologik madaniyatni shakllantirish quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

1. O'quvchilarda tabiatning bir butun ekotizim ekanligini anglashni rivojlantirish.
2. Tabiat va jamiyat uyg'unligini tushuntirish, ekologik bilimlarni o'rgatish.
3. Tabiiy muhit bilan ongli munosabatni shakllantirish va uni asrab-avaylashga o'rgatish.
4. Milliy va umumbashariy qadriyatlar bilan uyg'unlashgan ekologik fazilatlarini rivojlantirish.

Bu yondashuv o'quvchilarda sog'lom turmush tarzi va ekologik madaniyatni shakllantirishning pedagogik-psixologik asosini yaratadi va ularni kelajakda ijtimoiy mas'uliyatli, salomatligi mustahkam, ekologik ongli shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Tahlil va muhokama natijalaridan ko'rinib turibdiki, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida sog'lom turmush tarzini rivojlantirish va salomatlik madaniyati ko'nikmalarini shakllantirish pedagogik jarayonning asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayon nafaqat o'qituvchining jismoniy va ruhiy salomatligini mustahkamlashga, balki u orqali o'quvchilarda sog'lom turmush va ekologik madaniyatni targ'ib qilishga xizmat qiladi.

Sog'lom turmush tarzi va salomatlik madaniyati – bu shaxsning tabiat, jamiyat va o'zini muhofaza qilish, resurslardan oqilona foydalanish, faol hayotiy pozitsiyada bo'lish va amaliy harakat qilishni o'z ichiga oladigan kompleks ko'nikmalardir.

Tarixiy va adabiy manbalar (xususan, Alisher Navoiy ijodi) bolalarga sog'lom turmush, vatanparvarlik va tabiatni asrab-avaylash g'oyalarini estetik va hissiy tajriba orqali singdirishga imkon beradi.

Ekologik madaniyat faqat bilim bilan cheklanmay, ongli va mas'uliyatli munosabatni shakllantirishni o'z ichiga oladi. Bu ko'nikmalar bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida shakllangach, o'quvchilarda ham ekologik ong va sog'lom hayot tarzini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida salomatlik madaniyatini shakllantirish, sog'lom turmush va ekologik ongni rivojlantirish kelajakdagi shaxsning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy barqarorligini ta'minlaydi hamda milliy va umumbashariy qadriyatlar bilan uyg'unlashgan ekologik madaniyatni shakllantiradi.

Shu bilan, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini sog'lom turmush tarziga tayyorlash va ularning salomatlik madaniyati ko'nikmalarini rivojlantirish tizimli, ilmiy asoslangan va integratsiyalashgan pedagogik yondashuvni talab qiladi. Bu jarayon o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida interaktiv pedagogik muhit yaratish orqali amalga oshiriladi va kelajak avlodning jismonan sog'lom, ma'nan yetuk va ekologik ongli bo'lishini ta'minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida sog'lom turmush tarzini rivojlantirish va salomatlik madaniyati ko'nikmalarini shakllantirish jarayoni zamonaviy pedagogik amaliyotning ajralmas qismi hisoblanadi. Sog'lom turmush tarzi insonning jismoniy va ruhiy salomatligini mustahkamlash bilan birga, uning ijtimoiy mas'uliyatini, ekologik ongini va madaniy fazilatlarini rivojlantiradi.

Pedagogik jihatdan sog'lom turmush tarzini shakllantirish shaxsning tabiat, jamiyat va o'zini muhofaza qilish, resurslardan oqilona foydalanish va faol hayotiy pozitsiyada bo'lishni o'z ichiga olgan kompleks ko'nikmalar majmuasidir. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari ushbu ko'nikmalarni o'zida shakllantirib, ularni o'quvchilarga yetkazishda pedagogik namuna bo'ladilar.

Adabiy va tarixiy manbalar (masalan, Alisher Navoiy ijodi) orqali sog'lom turmush va ekologik ongni targ'ib qilish o'quvchilarda hissiy, estetik va axloqiy tajriba yaratadi. Farhod obrazidagi sog'lom, jasur va mas'uliyatli fazilatlar o'quvchilarni ijobiy shaxsiy fazilatlarni egallashga rag'batlantiradi.

Ekologik madaniyat – bu faqat bilimlarni o'z ichiga olgan pedagogik jarayon emas, balki ongli va mas'uliyatli munosabatni shakllantirishdir. Bo'lajak o'qituvchilar ushbu ko'nikmalarni egallash orqali o'quvchilarda tabiatni asrab-avaylash, resurslardan oqilona foydalanish va ekologik mas'uliyatni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida sog'lom turmush va ekologik madaniyatni erta yoshdan rivojlantirish o'quvchilarda mustahkam odatlar va ijobiy xulq-atvorni shakllantiradi. Bu jarayon milliy va umumbashariy qadriyatlar bilan uyg'un bo'lib, kelajak avlodning jismonan sog'lom, ruhiy barqaror va ijtimoiy mas'uliyatli bo'lishini ta'minlaydi.

Shunday qilib, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida sog'lom turmush tarzini rivojlantirish va salomatlik madaniyati ko'nikmalarini shakllantirish integratsiyalashgan, tizimli va ilmiy asoslangan pedagogik yondashuvni talab qiladi. Bu jarayon orqali nafaqat o'qituvchilar, balki o'quvchilar ham sog'lom, mas'uliyatli va ekologik ongli shaxs sifatida tarbiyalanadi, natijada jamiyatda sog'lom avlodni tarbiyalashning samarali tizimi shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning ekologik xavfsizligini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni. – Toshkent, 2019.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktab ta'limi tizimida sog'lom turmush tarzini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar" Qarori. – Toshkent, 2021.
3. Zverov I.D., Zaklebnij A.N., Turdiqulov E.O., Suravegina I., Matrusov I. Pedagogical and philosophical foundations of healthy lifestyle and ecological education. – Moskva, 2005.
4. Shodimetov Yu., Ziyomammedov B., To'xtayev A.S., Qodirov E.V., Qudratov O., Xolmurodov J., Nigmatov A.N. Environmental education and upbringing in Uzbekistan. – Toshkent, 2010.
5. Navoiy A. Farhod va Shirin. – Toshkent, 2007.
6. Usmonhodjaev T., Xo'jaev F. Jismoniy tarbiya darslarining samaradorligi. – Toshkent, 1992.



7. Skachkov I.G. Physical education and health culture. – Moskva, 1993.
8. Golomazov V.A., Kovalev V.D., Melnikov A.G. Pedagogical bases of physical education. – Moskva, 1996.
9. Shonosirova L.T. Ekologik dunyoqarashni shakllantirish masalalari. – Toshkent, 2008.
10. Yuldashev M.A., Abdullaev M.M., Ashurov N. Nature and human interaction in ecological education. – Toshkent, 2012.
11. Karimov I.A. Barakamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent, 2000.
12. Bilaeva L.V., Korotkov I.M. Physical education methods in secondary schools. – Moskva, 1989.
13. Lisitsa A.I., Furmanov G.A., Nasriddinov F.N., Qosimov A.Sh. Physical culture and student health. – Toshkent, 1993.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.